



KUNXO‘JA SHOIR ASARLARIDA METONIMIYALARNING QO‘LLANILISHI

Saparmatov Omar Shamurat o‘g‘li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

o.saparmatov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20751307>

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq adabiyotining klassik shoiri Kunxo‘ja Ibrohim o‘g‘li she‘riyatining badiiy tili tahlil qilindi. Jumladan, badiiy vositalardan metonimiyalarning qo‘llanilish doirasi haqida tahlil qilindi.

Tayanch so‘zlar: lingvofolkloristika, badiiy asar tili, badiiy tasvir vositalari, troplar, metonimiya.

Аннотация. В статье анализируется художественный язык поэзии классика каракалпакской литературы Кунходжи Ибрагим оглы. В частности, проанализирована сфера применения метонимии из художественных средств.

Ключевые слова: лингвофольклористика, язык художественного произведения, средства художественного изображения, тропы, метонимия.

Abstract. The article analyzes the artistic language of the poetry of the classical poet of Karakalpak literature Kunhoja Ibragim oglu. In particular, the scope of use of metonymy from artistic means was analyzed.

Key words: linguofolkloristics, language of a literary work, means of artistic representation, tropes, metonymy.

Kirish. Shoir Kunxo‘ja asarlarida badiiy mahorat masalasini, troplar va figuralarning qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganish va uni yanada boyitish ishimizning asosiy maqsadidir.

Qoraqalpoq klassik adabiyotining boy namunalari shoir asarlarida keng o‘rin olgan. Shuning uchun, shoir poeziyasida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari va badiiy tasvirlash usullari alohida bir dunyo hisoblanadi. Badiiy tasvir vositalari har bir shoirning o‘ziga xos uslubiy xususiyatini ifodalab, uning so‘z qo‘llash mahoratini, boshqalardan farqini anglatuvchi yagona xususiyatdir. Badiiy tasvirlash usullari esa asar matniga va asar mazmuniga teng ta‘sir etuvchi usullardan.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotga oid manbalarni tahlil qilish natijasida shu narsa ayon bo‘ladiki, Qoraqalpoq adabiyotida badiiy til masalasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yozuvchi va shoirlar asarlarida qo‘llangan tasviriy vositalar, poetik birliklar, milliy ruhni ifodalovchi til unsurlari hamda individual uslub masalalari ilmiy tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada foydalanilgan ilmiy manbalar yozuvchi asarlarining badiiy til xususiyatlarini ochib berishda nazariy hamda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Sh.Abdinazimov, A.Pirniyazova va S.Shinnazarovalarning “Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili (Fonetika. Leksikologiya)” [1] nomli asarida qoraqalpoq adabiy tilining fonetik va leksik qatlamlari ilmiy jihatdan keng yoritilgan. Mualliflar til birliklarining



shakllanishi, ma'no taraqqiyoti, sinonimiya, omonimiya, dialektal birliklar hamda xalqona iboralarning qo'llanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan. Mazkur manba yozuvchi asarlaridagi leksik boylikni, xalq tiliga xos birliklarning badiiy matndagi vazifasini hamda obrazlilikni ta'minlovchi til vositalarini tahlil qilishda muhim nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

B.Genjemuratovning "Ájiniyaz lirikasiniń poetikasi" [2] asarida Ájiniyaz ijodining poetik xususiyatlari, lirik qahramon ruhiyati va shoir tilining badiiy-estetik imkoniyatlari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda metafora, epitet, o'xshatish, ramziy obrazlar va xalq og'zaki ijodi elementlarining qo'llanishi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Ushbu asar yozuvchi va shoirlarning individual uslubini, poetik tafakkurini hamda badiiy tilning emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Q.Járimbetovning "XIX ásir qoraqalpaq lirikasiniń janrlıq qásiyetleri hám rawajlanıw tariyxı" [3] nomli ilmiy ishida XIX asr qoraqalpoq lirikasining janr xususiyatlari, poetik taraqqiyoti hamda adabiy til rivoji masalalari yoritilgan. Muallif lirika janrlarining shakllanish jarayonini tahlil qilish bilan birga, badiiy tasvir vositalari va milliy poetik an'analarning rivojlanishiga ham to'xtaladi. Ushbu manba orqali qoraqalpoq adabiyotidagi badiiy tilning tarixiy taraqqiyoti va an'anaviy poetik vositalarning yozuvchi uslubidagi o'rni aniqlanadi.

Q.Turdibaevning "Didaktikalıq shıǵarmalar – ruwxıy baylıǵımız" [4] asarida didaktik xarakterdagi asarlarning ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati hamda ularning til xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda nasihat, hikmat, pand-nasihat mazmunidagi matnlarda qo'llangan sodda va ta'sirchan ifoda vositalari, xalqona uslub hamda ma'rifiy g'oyalarning badiiy talqini yoritiladi. Bu esa yozuvchi asarlaridagi didaktik ruh, badiiy ifoda va milliy tafakkur uyg'unligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy manbalar qoraqalpoq adabiyotida badiiy tilning shakllanishi, poetik vositalarning qo'llanishi, individual uslub va milliy til imkoniyatlarini tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur adabiyotlar asosida yozuvchi asarlaridagi obrazlilik, ekspressivlik va estetik ta'sirchanlikni chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Natijalar. Badiiy tasvir usullari haqida Kunxo'ja lirikasining badiiy mazmunini yanada yorqinroq tasavvur qilish uchun adabiyotshunoslik ilmida badiiy tasvir usullari deb yuritiladigan figuralardan ham mahorat bilan foydalanish sirlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Adabiyotshunoslik ilmida asar poetikasini o'rganishda badiiy tasvir vositalariga e'tibor qaratiladi-yu, badiiy shakllar tadqiqotdan chetda qolib ketaveradi. Biz lirik she'rning poetikasi deganda faqat badiiy fikrlarning, xulosalarning, satrlarning, so'z birikmalarining, so'zlarning ko'chma ma'nolarini emas, balki tovushlar ohangdoshligini ham tushuntirishi sir emas. Shunday ekan, asarlardagi figuralarga ham poetik elementlar



sifatida yondashishimiz poeziya haqidagi tushunchalarimizni yanada kengaytiradi. A.Kvyatkovskiy "Badiiy tasvirlash usullari haqida yozuvchilar tomonidan emas, balki nasr yoki she'rlardagi aniq badiiy tasvirga erishish uchun qo'llaniladigan stilistik gap turi" sifatida ta'rif beradi va barcha troplarda figuraga tegishli deb hisoblaydi. Chunki troplar deganda biz, ishlatilgan so'zlarning, so'z birikmalarining va fikr tushunchalarining ko'chma, majoziy, obrazli boshqacha ma'noga ega bo'lishini tushunamiz. Ammo, badiiy tasvirlash usullarida esa she'r xulosalaridagi so'zlarning so'z birikmalarini, satrlarning shoir tomonidan qanday joylashtirilganini, qanday va nima uchun joylashtirilganini, takrorlanishini, ma'no jihatdan qarama-qarshi qo'yilishining sirlarini o'rganamiz.

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy tasvir vositalari asarning mazmuniga, badiiy tasvir usullari esa asarning shakliga nisbatan qo'llaniladi degan tushunchalar ham bor. Troplarning asar mazmunining ko'pchiligiga ta'sir etishi tushunilgan. Biroq, biz stilistik figuralarni faqat shaklga ta'sir etish doirasi bilan chegaralay olmaymiz. Ular ham troplar kabi asarning ichki shakliga, ya'ni mazmunga ta'sir ko'rsatish funksiyasini bajara oladi. Rus olimlarining tadqiqotlarida uslubiy figuralarning asarda qo'llanilishi ahamiyati atroflicha o'rganilib, ularning leksik va sintaktik vazifasiga ko'ra tasniflanishi ham uchraydi.

"Badiiy tasvir vositalari asarning poetik bezagi bo'libgina qolmay, asar g'oyasini konkretlashtirishning realistik vositasi hamdir".Umuman, asardagi barcha so'zlar ham tasviriy vosita, ammo, ko'chma ma'no anglatganlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ular badiiy tasvir vositalari sifatida o'rganiladi.

Metonimiya - bunda narsa yoki hodisa orasidagi bog'lanish asosida bir narsa nomi bilan ikkinchi narsa qayta nomlanadi, natijada dastlabki nomning ma'nosiga qaraganda butunlay o'zgacha ikkinchi ma'no hosil bo'ladi. Masalan: Navoiydan savod ochdim (Berdaq). Bir piyola ichdi. Uylar yotib qolgan ekan.

Metonimik usul orqali so'z ma'nosining ko'chishi hozirgi zamon qoraqalpoq tilining leksikologiyasida so'zning ko'p ma'nosini boyitishning eng muhim omillaridan biri bo'lib turibdi. Bu usul orqali paydo bo'lgan ma'no faqat ko'chma ma'no bo'lib qolmay, shuning bilan birga ko'pincha obrazli ma'no bo'lib keladi. Masalan: Ayni choshgoh vaqtida o'sha boyning bolasi bilan birga bir po'stin kirib keladi (Qoraqalpoq xalq ertaklaridan) [1.84]

Metonimiya ham, metaforalar kabi, adabiy asarlarda badiiy tasvirning muayyan vositalari sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun badiiy so'z ustalari metonimiya usuli orqali ko'chgan ma'noli so'zlardan ko'p foydalanadi, shu orqali uslubiy o'ziga xosliklarni, so'z obrazlilikini, ma'no o'tkirligini yaratib turibdi. Metonimiya ham metafora kabi badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda voqea yoki hodisa, narsa, boshqa nom bilan qayta nomlanadi. Kunxo'ja shoir asarlarida metonimiyalar lirik qahramonning turli holatlarini, shuningdek, shoirlarning niyatini yetkazib berish uchun qo'llanilgan. Masalan:



"Oshiqning yo'lida ichlari qaynab,
Qorli sovuqlarda jonlarini qiynab,
Qiz kelar deb turar ko'zlari yonib,
Termulib turasan yigirma beshda."

She'rni olib, oddiy tarzda, ya'ni, unga obrazlilik yuklamasdan o'qib, tushuntirish beradigan bo'lsak, yigirma beshdagi odamning (yigitning) ichining qozonga o'xshab qaynashi, ko'zlarining gullarga o'xshab ochilib yashnashi, yoki aylanishi deb tushunishga to'g'ri keladi. Ammo, obyektiv holati bo'lishi mumkin emas. Demak, shoir lirik qahramonning yigirma besh yoshidagi holatini tushuntirishda, aks ettirishda hodisalarning o'xshashlik xususiyatidan foydalangan va so'zlarga obrazli ma'no yuklab, metonimiyaning ajoyib namunasini hosil qilgan. "Ishlari qaynab" metonimiyasi orqali lirik qahramonning ayni kuchga to'lgan mahali yigirma besh yoshlarida tinib-tinchimasligi, hamisha harakatda bo'lishi obrazli qayta nomlangan. Va, "ko'zlari yonib" metonimiyasi orqali shodlikdan, quvonchdan ichki kechinmalarining to'lib-toshishini tasvirlash uchun qo'llanilgan.

Rus olimi F.M.Selivanov "Poetika bo'limi" asarida metonimiya va sinekdoxa haqida fikr yuritir ekan, ular narsa, yoki hodisaning, belgi yoki harakatlarining ichki yoki tashqi o'xshashliklarining, aloqalarining biridan ikkinchisiga o'tishi, aralashuvi natijasida paydo bo'ladi. Sinekdoxada bu aralashuv son aloqasi va munosabati yo'nalishida bo'lsa, metonimiyada sifat aloqasi va munosabati yo'nalishida amalga oshadi - deb yozadi [2.20].

Demak bu fikrni e'tiborga oladigan bo'lsak, metonimiya metaforaga yaqin tushunchaga o'xshaydi. Lekin, biz metafora bilan metonimiyaning xususiyatlarini, farqini bilib borishimiz va ular haqida tushunchalarimizda chalkashliklarga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

Shoir Kunxo'ja asarlarida metonimiyalarning bajaradigan vazifasi, ahamiyati juda katta. Metonimiyalar badiiy fikrni ixchamlashtirib berish uchun, ba'zan esa tasvirlanayotgan narsaning, odamning, voqeaning yoki hodisaning bo'yoqlari yanada rang-barang o'zgarishlari, yoki bo'lmasa obrazning yanada gavdalanishi uchun zarur xizmat bajaradi.

Shoir she'riyatida metonimiyalar o'zi yashagan davr xususiyati, ijtimoiy, iqtisodiy holatini tasvirlash uchun ham qo'llanilgan jihatlarini ko'ramiz. Masalan:

1. Cho'ntagimda yo'q abboz shoyi bir pulim,
Bu dunyoga chiqqanimdan ne foyda?
2. Qora pul bo'lmay topishim,
Qishloqni qachon ko'rarman?

Misollardagi "abboz choyi bir pulim," "qora pul" metonimiyalari o'sha davrda qo'llanilgan pul birliklarining nomlarini bildirish bilan birga, misollarda pulning yoki



rangi nazarda tutilmagan, balki ularning miqdorining ozligi nazarda tutilgan. Bu jihatdan, u sinekdoxa juda o'xshab ketadi. Ammo sinekdoxa ochiq son munosabati natijasidagi o'xshashlik olinsa, metonimiyada sifat munosabati natijasida qayta nomlanadi.

Shuningdek, shoir she'riyatida metonimiyalar rang yoki shunga o'xshash uning belgisiga asoslanib qayta nomlash orqali boshqa bir ma'noni anglatish xususiyati bilan ham qo'llanilgan. Masalan:

“Ham qaraysan olisdagi,
Kelayotgan qoraga,
Jirkanmaysan ortga chekinib yana,
Chiday olmay qoni oqqan yaraga”.

Misoldagi “qora” metonimiyasi o'zining to'g'ri ma'nosida rangni ifodalaydi. Biroq unga qo'shib aytilgan “kelayotgan” so'zi jon bag'ishlab turibdi. Demak, uzoqdan kelayotgan odam yoki boshqa bir jonli mavjudotning qorayib ko'rinishi ma'lum. Aynan shu o'xshashlik belgisini hisobga olib, shoir rang bildiruvchi “qora” so'ziga “odam” ma'nosini yuklagan. Shu kabi metonimiyalarning rang-barang turlarini Kunxo'ja lirikasida ko'plab uchratish mumkin. Shoir lirikasidagi metonimiyalar alohida o'rganishni talab qiladi. Bu esa shoirning badiiy so'z dunyosini o'rganishga yordam beradi.

Muxokama. Yozuvchi va shoirlar asarlarining badiiy tili har bir davrning estetik tafakkuri, milliy dunyoqarashi hamda xalqning ruhiy-ma'naviy olamini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Qoraqalpoq adabiyotida badiiy til masalasi faqatgina til birliklarining qo'llanishi bilan chegaralanib qolmay, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va hayotiy tajribalarining san'at darajasida ifodalanishini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli yozuvchi asarlaridagi poetik vositalarni tahlil qilish adabiy matnning estetik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiq etilgan ilmiy manbalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, qoraqalpoq adabiyotida badiiy tilning shakllanishida xalq og'zaki ijodi muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, maqol-matallar, frazeologik birliklar, xalqona iboralar hamda milliy tasvir vositalari yozuvchi uslubining tabiiy va ta'sirchan chiqishiga xizmat qilgan. Bu esa badiiy matnning xalq ruhiga yaqinligini ta'minlab, asarlarning o'quvchi qalbiga chuqur kirib borishiga sabab bo'ladi. Yozuvchilar xalq tilidagi obrazli ifodalarni san'atkorona qayta ishlash orqali milliy ruhni saqlab qolishga erishganlar.

Sh.Abdinazimov, A.Pirniyazova va S.Shinnazarovalar tomonidan yoritilgan leksik qatlam masalalari yozuvchi tilining boy va rang-barang ekanligini ko'rsatadi. Asarlarda sinonim, antonim, ko'p ma'noli so'zlar hamda emotsional-ekspressiv birliklarning faol qo'llanishi badiiy tasvirning kuchayishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, xalq turmushi bilan bog'liq milliy so'zlarning ishlatilishi asarlarga tabiiylik va hayotiylik baxsh etadi. Bu holat qoraqalpoq adabiyotida milliy til imkoniyatlaridan unumli foydalanilganligini ko'rsatadi.



B.Genjemuratov tadqiq etgan Ajiniyaz lirikasining poetikasi misolida badiiy tilning emotsional-estetik kuchi yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir asarlarida metafora, epitet, o'xshatish va ramziy obrazlar inson ruhiyatini ochib beruvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Poetika elementlari orqali muallif ichki kechinmalarni, ijtimoiy muammolarni va insoniy qadriyatlarni chuqur badiiy ifodalashga erishgan. Bu esa qoraqalpoq she'riyatida obrazlilik va poetik tafakkurning yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Q.Jarimbetov tomonidan o'rganilgan XIX asr qoraqalpoq lirikasining janriy xususiyatlari esa badiiy til taraqqiyotining tarixiy ildizlarini ko'rsatadi. Lirik asarlarda qo'llangan poetik vositalar va milliy obrazlar keyingi davr yozuvchilari ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, milliy ruhni ifodalovchi badiiy birliklarning avlodan-avlodga o'tib kelishi qoraqalpoq adabiyotida adabiy an'ananing uzviy davom etganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, zamonaviy yozuvchilar tilida ham klassik poetika unsurlarining davomiyligi seziladi.

Q.Turdibaev tomonidan tadqiq etilgan didaktik asarlarda esa badiiy tilning tarbiyaviy funksiyasi alohida namoyon bo'ladi. Didaktik xarakterdagi asarlarda sodda, tushunarli va xalqchil ifoda usuli yetakchi o'rin tutadi. Nasihat va hikmat mazmunidagi jummalarning obrazli tarzda berilishi o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu holat badiiy tilning faqat estetik emas, balki ma'naviy-ma'rifiy vazifani ham bajarishini tasdiqlaydi.

Tahlillar natijasida yozuvchi asarlarining badiiy tilida obrazlilik, ekspressivlik, milliylik va poetik uyg'unlik asosiy xususiyat sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Yozuvchilar til vositalaridan foydalanishda xalqning ruhiy olami, tarixiy tajribasi va milliy tafakkurini chuqur his etgan holda ijod qilganlar. Natijada qoraqalpoq adabiyotida o'ziga xos individual uslub va boy poetik an'ana shakllangan.

Shuningdek, badiiy til vositalarining o'rinli qo'llanishi asarning estetik qiymatini oshirish bilan birga, o'quvchining hissiy-ta'sirchan qabul qilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tasviriy vositalarning uyg'unligi va milliy ruh bilan boyitilishi qoraqalpoq adabiyotining badiiy salohiyatini yanada yuksaltirgan. Shu sababli yozuvchi asarlaridagi badiiy tilni lingvopoetik jihatdan tadqiq etish kelgusida ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Xulosa. XIX asr qoraqalpoq lirikasining janr xususiyatlarini o'rganigan olim Q.Jarimbetov bu davr adabiyoti haqida shunday degan edi. "Hozirgi davrga qadar qoraqalpoq klassik adabiyoti, shu jumladan klassik lirikasi turli aspektlarda o'rganildi va o'rganilmoqda. Eng muhimi u she'riyat, adabiy meros yo'nalishida samarali tadqiq etildi. Xususan, dastlabki manbalar to'plandi, badiiy matnlar nashrdan chiqarildi, ular tekstologik va tarixiy-falsafiy ishlovdan o'tib xronologik tartibga solindi" - deb o'rinli aytganidek, chindan ham Kunxo'ja Ibrohim o'g'li ijodi ham shu yo'nalishda o'rganilib kelindi. Kunxo'ja lirikasida badiiy tasvir vositalari va usullarini o'rganishda dastlab nazariy



fikrlarga tayangan holda yondashildi. Kunxo‘ja asarlarida badiiy tasvir vositalarining mazmunini boyitishdagi ahamiyati ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdinazimov Sh., Pirniyazova A., Shinnazarova S. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. (Fonetika.Leksikologiya). Tashkent, 2018.
2. Genjemuratov B. Ájiniyaz lirikasınıń poetikası. Nókis, Bilim, 1997.
3. Járımbetov Q. XIX ásir qaraqalpaq lirikasınıń janrlıq qásiyetleri hám rawajlanıw tariyxı. Nókis, 2004.
4. Turdıbaev Q. Didaktikalıq shıǵarmalar-ruwxıy baylıǵımız. Nókis, 2009.

